


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmurodova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnudbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafroz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG..	215
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI	
AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL	222
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI...	
.....	229
Raximov Jo'rabek Raximovich	
XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA EKSPORT FAOLIYATIDAGI ROLI	
.....	236
Shoxida Ibadullayeva	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MINTAQ RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	
YO'LLARI.....	240
Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li	
CHORRAHA SVETOFORLARINING AQLLI AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV PARAMETRLARINI	
SUMO MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	244
Bayozov Ravshan Rajabovich	
M-39 YO'LINING 989-1013 KMLARIDAGI TOG'LI HUDUDLARDA SODIR ETILGAN YTHLARNING	
TAHLILI ASOSIDA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQISH SAMARADORLIGI.....	251
Shokirov Ozod G'aybullay o'g'li	
SHAHAR MAGISTRAL YO'LLARINING TUZILISHI VA TRANSPORT OQIMI	258
Xayrullo Raximovich Baynazarov	
ELEKTROMOBILLAR BATAREYALARINI TURLI IQLIM SHAROITLARIDA QIZDIRISH UCHUN	
SARFLANADIGAN ENERGIYA VA VAQT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH	266
Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich	
ELEKTROMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH STANSIYALARI FAOLIYATINING BOSHQARUV	
MODEL.....	272
Xasanov Bunyodjon Ibragim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING HUDUDIY	
XUSUSIYATLARI.....	279
Vaisov Dilshod, Madraximov Qahramon	
EKSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY DAVLATLARI	
TARJIBASI	285
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV BAHOLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	
VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	291
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
FERMENTLANGAN NO'XAT UNI VA BUG'DOY UNI ARALASHMASIDAN TAYYORLANGAN NONNING	
SIFATI VA OZIQAVIY QIYMATINI ASOSLASH.....	295
Kamolova Muxlisa, Barakayev Nusratilla	
QURILISH KORXONALARI UCHUN YASHIL STRATEGIK BOSHQARUV MODEL.....	302
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
ИССЛЕДОВАНИЕ ГИДРОГЕОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ СОЛЕВОГО ПЛАСТА И КАРСТА	
ТЮБЕГАТАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ	310
Холбаев Бахром, Курбанов Диярбек	
VALIKLI JINNING IKKI PICHQOLI TIZIMIDA TOLA AJRATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI.....	314
Abdugapparova Sh.N., Yuldashev A.X.	



YO'L-TRANSPORT HODISALARI SODIR BO'LIHIDA HAYDOVCHINING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINING TA'SIRI.....	319
Ulkanov Sardorjon Sodiqjon o'g'li	
QISHLOQ MAHALLALARIDA MARKAZIY ISSIQLIK TIZIMLARINI VODOROD ENERGIYA GENERATORLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIK VA IQTISODIY ASOSLARI.....	323
Askarov Xasanjon, Jumaqulova Zulayho	
MUHIM AXBOROT INFRATUZILMASI OBYEKTLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIK BO'YICHA MUTAXASSISLARNI AMALIYOTGA YO'NALTIRILGAN TAYYORLASH.....	329
G'ulomov Sherzod Rajaboyevich	
BARBOTAJLI ABSORBER QURILMASINING GIDRAVLIK QARSHILIGINI TADQIQ ETISH.....	338
Xalilov Ismoiljon, Askarov Xasanjon	
MAXSUS IQTISODIY VA SANOAT ZONALARIDA KO'P TARMOQLI KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI.....	345
Xusanova Malohat Mingnorovna	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY ZONALAR BO'YICHA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	349
A. B. Qurbonov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI CHEKLAYOTGAN MUAMMOLAR.....	357
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
РЕАЛИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	364
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING ZAMONAVIY SHAKLLARI: NAZARIY ASOSLAR VA GENDER JIHATLARI TAHLILI.....	371
Xasanova Shaxzoda Sarvar qizi	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA YANGI O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TA'LIM RIVOJLANISHINING TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI.....	375
Masharipova Maksuda Beknazarovna	
MEHNAT MUHOFAZASIDA INSON OMILINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	380
Ashirqulova Qurbonoy, Nurbek Mamatov	
BILIMGA ASOSLANGAN AVTONOM AGENTLAR VA RAG TEXNOLOGIYALARI.....	387
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
EKSPORT SALOHİYATINI BAHOLASHDA QIYOSIY USTUNLIK (BALASSA) INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	395
Olchinboyev Otabek Abdusamad o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KORPORATIV MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	399
Abduraxmonov Farrux Talipjanovich	
HUJURLARNI ANIQLASH TIZIMLARIDA TAHDID MODELINI ISHLAB CHIQRISH.....	404
Barotova Zahro Akmaljon qizi	
G'ISHTNI QURITISH VA PISHIRISH JARAYONLARI.....	413
Askarov Xasanjon	
BUG' TURBINALI GENERATORLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNIK YECHIMLARI.....	417
Xudoyqulov Zoki, Eshbekov Muxriddin	
EFFECTIVE WAYS TO USE DEVICES OPERATING IN A MECHATRONICS SYSTEM.....	421
Makhammaillo Aliboyev	
KREATIV IQTISODIYOT VA GENDER INKLYUZIV RIVOJLANISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK: XALQARO TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	427
Sharipova Aziza Faxriddin qizi	



DAVLAT TASHKIOTLARIDA MENTORLIK TIZIMINI JORIY ETISH HOLATI VA INNOVATSION MODELAR TAHLILI	431
Xurshida Maxmadaminova	
O'ZBEKISTONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	440
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSION MODEL OMILLARI VA DRAYVERLARI.....	446
Abruyeva Xilola Sherbekovna	
УПРОЩЕННЫЙ СПОСОБ ВЫЧЕРЧИВАНИЯ ПРОФИЛЯ ЗУБЧАТОГО КОЛЕСА ПРИ ВЫПОЛНЕНИИ КУРСОВЫХ РАБОТ ПО «ТЕОРИИ МЕХАНИЗМОВ И МАШИН».....	455
Файзуллаев Асамитдин, Файзуллаев Салохитдин	
МОДЕЛИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	459
Джидибаева Гульзат, Абдуллаев Ильгор, Далиев Ахтам	
MAXSUS KIYIMBOR TO'QIMALAR UCHUN BAZALT XOMASHYOSINI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	467
Mustanova Zilola Abdusamat qizi	
РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ И АЛГОРИТМОВ ПАРАМЕТРИЧЕСКОГО 3D-МОДЕЛИРОВАНИЯ ОДЕЖДЫ С УЧЁТОМ АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ФИГУРЫ ЧЕЛОВЕКА	473
Каримбердиева Мохинур Шерзод кизи	
O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA FISKAL SIYOSATDAN FOYDALANISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	481
Azamatov Po'lat To'lgunovich	
CHIZMA GEOMETRIYA FANINI O'QITISHDA VIRTUAL MUHIT TUSHUNCHASI VA UNING FAZOVIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI	487
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
ANDIJON SHAHRI BOBURSHOH KO'CHASIDA TRANSPORT VOSITALARINING XAVFSIZ HARAKATINI TASHKIL ETISH.....	495
Meliqo'ziyev Abdulaziz Rasuljon o'g'li	
CHAQIQ TOSH ISHLAB CHIQRISH TANNARXINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI	501
Qosimov Karimjon, Zuhritdinov Alisher, Kosimova Maloxatxon, Zo'xriddinov Dilmurod, Mahammadjonov Nurmahamad	
COMPOSITION ANALYSIS OF DEMERCAPTANIZED RESIDUAL STREAMS AND GAS CONDENSATES AS RAW MATERIALS FOR THE SYNTHESIS OF MERCAPTAN-CONTAINED ODORANTS	508
Tilloeva Shakhnoza Fakhritdinovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH NATIJADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI.....	514
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING TAMOYILLARI, USULLARI VA BAHOLASH MEZONLARI.....	520
Farxod G'afforovich	
TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING MAHALLA TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....	526
Yodgorov Farrux G'afforovich	

TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING MAHALLA TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Yodgorov Farrux G'afforovich

Agrobank ATB Xududiy dasturlar monitoringi Boshqarma boshlig'i

Annotatsiya: Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning mahalla darajasida tadbirkorlikni, xususan, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik va aholining tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdagi o'rni hamda ahamiyati tadqiq etilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining **2026-yil mart holatidagi** statistik byulleteni ma'lumotlari asosida **2020–2026-yillarda** kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida ajratilgan kreditlar dinamikasi, ularning yo'nalishlar va tarmoqlar bo'yicha tarkibi, **“Har bir oila – tadbirkor”** dasturi hamda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilgan kreditlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida mahalla tadbirkorligini kreditlash tizimidagi mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan muallifning ilmiy yondashuvlari hamda amaliy takliflari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kredit, mahalla tadbirkorligi, oilaviy tadbirkorlik, mikrokredit, **“Har bir oila – tadbirkor”** dasturi, hokim yordamchisi, kichik va o'rta tadbirkorlik, foiz stavkasi.

Аннотация: Исследована роль и значение кредитов, предоставляемых коммерческими банками, в развитии предпринимательства на уровне махалли, в частности семейного предпринимательства, ремесленничества и предпринимательской деятельности населения. На основе данных статистического бюллетеня Центрального банка Республики Узбекистан **по состоянию на март 2026 года** проведён анализ динамики кредитов, предоставленных субъектам малого и среднего предпринимательства, а также населению для осуществления предпринимательской деятельности **за 2020–2026 годы**, их структуры по направлениям и отраслям, а также кредитов, выделенных в рамках программы **«Каждая семья – предприниматель»** и программ развития семейного предпринимательства. По результатам исследования выявлены существующие проблемы в системе кредитования предпринимательства на уровне махалли и разработаны авторские научные подходы и практические рекомендации, направленные на их решение.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредит, предпринимательство на уровне махалли, семейное предпринимательство, mikrokredit, программа **«Каждая семья – предприниматель»**, помощник хокима, малое и среднее предпринимательство, процентная ставка.

Abstract: The role and significance of loans provided by commercial banks in promoting entrepreneurship at the *mahalla* level, particularly family entrepreneurship, handicrafts, and the entrepreneurial activities of the population, are examined. Based on the statistical bulletin of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan **as of March 2026**, the study analyzes the dynamics of loans granted to small and medium-sized enterprises and households for entrepreneurial activities during **2020–2026**, their distribution by sectors and lending purposes, as well as loans allocated under the **“Every Family is an Entrepreneur”** program and other family entrepreneurship development programs. The findings identify the existing challenges in the *mahalla* entrepreneurship financing system and propose the author's scientific approaches and practical recommendations aimed at improving the effectiveness of entrepreneurial lending.

Keywords: commercial banks, credit, *mahalla* entrepreneurship, family entrepreneurship, microcredit, **“Every Family is an Entrepreneur”** program, *hokim* assistant, small and medium-sized enterprises (SMEs), interest rate.

KIRISH

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning markazida mahalla instituti turibdi. Mahalla aholining eng quyi bo'g'inidagi ehtiyoj va muammolarni aniqlash, kambag'allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta'minlashning asosiy platformasiga aylandi. **2022-yildan** boshlab mamlakatimizda **“mahallabay”** ishlash tizimi joriy etilib, har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari instituti tashkil etildi. Mazkur tizimning samarali faoliyat yuritishida moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojni qondirish, ya'ni tijorat banklari kreditlarining rolini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi



O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son¹ Farmonida inson qadrini ulug'lash va faol mahalla tamoyili asosida xalqchil davlat barpo etish, har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda tijorat banklari tomonidan mahalla tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, aholining kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalla tadbirkorligi deganda bevosita mahalla hududida faoliyat yurituvchi oilaviy tadbirkorlik subyektlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar, hunarmandlar, o'zini o'zi band qilgan shaxslar hamda tomorqa xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyati tushuniladi. Mazkur subyektlarning aksariyati yirik mulkiy ta'minotga ega bo'lmaganligi sababli, ularning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda tijorat banklarining mikrokreditlari hamda davlat dasturlari doirasidagi imtiyozli kreditlari asosiy moliyaviy manba hisoblanadi. Shu bois, tijorat banklari kreditlarining mahalla tadbirkorligini rivojlantirishdagi o'rnini ilmiy asosda tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xorijlik iqtisodchi olimlardan J. Stiglitz va A. Weiss o'zlarining mashhur ilmiy tadqiqotlarida kredit bozoridagi axborot asimmetriyasi sharoitida banklar kredit ratsionlashtirishni amalga oshirishi, ya'ni foiz stavkasini oshirmagan holda ayrim qarz oluvchilarga kredit ajratmasligi mumkinligini nazariy jihatdan asoslab berganlar [3]. Mazkur holat ayniqsa kichik hajmdagi, kredit tarixiga va yetarli mulkiy ta'minotga ega bo'lmagan mahalla darajasidagi tadbirkorlar uchun xos bo'lib, ularning bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

T. Beck va A. Demirgüç-Kunt tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik va o'rta biznes subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi ularning rivojlanishidagi muhim omillardan biri ekanligi empirik jihatdan asoslangan [4]. Ularning xulosalariga ko'ra, moliyaviy institutlarning rivojlanishi va kreditlash mexanizmlarining takomillashuvi aynan kichik korxonalar rivojlanishiga nisbatan yanada kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Mikromoliyalashtirishning aholi farovonligiga ta'sirini A. Banerjee, E. Duflo va boshqa olimlar tasodifiy tanlanma tajribalar asosida o'rganib, mikrokreditlarning mavjud tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, biroq uning samaradorligi kreditlash mexanizmining to'g'ri yo'lga qo'yilishiga bog'liqligini ta'kidlaganlar [5]. Shuningdek, M. Yunus tomonidan asos solingan guruhli kafolatga asoslangan mikrokreditlash modeli mulkiy ta'minoti yetarli bo'lmagan aholi qatlamlarini kreditlashning samarali usuli sifatida jahon amaliyotida keng qo'llaniladi [6].

Rus iqtisodchi olimlaridan O. I. Lavrushin tahriri ostida nashr etilgan ilmiy adabiyotlarda bank krediti iqtisodiyotning real sektorini, jumladan, kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosiy vositasi sifatida baholanib, kreditlashning maqsadlilik, ta'minlanganlik va qaytaruvchanlik tamoyillariga alohida urg'u berilgan [7]. Mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida esa tijorat banklari kredit siyosatini takomillashtirish, aholining kreditlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda hududlarda tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalari tadqiq etilgan [8].

Yuqoridagi ilmiy qarashlarni umimlashtirgan holda shuni ta'kidlash joizki, mahalla darajasidagi tadbirkorlikni kreditlash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u an'anaviy korporativ kreditlashdan farqli ravishda kichik summadagi, qisqa muddatli va nisbatan yuqori ma'muriy xarajatlarni talab qiladigan kreditlar bilan tavsiflanadi. Shu bois, mazkur segmentni rivojlantirishda davlat dasturlari, imtiyozli kreditlash mexanizmlari hamda banklarning raqamli texnologiyalarga asoslangan mikrokreditlash strategiyalari muhim o'rin tutadi.


Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda mavzuga oid xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy hamda tanqidiy tahlil qilindi. Tadqiqotning empirik asosini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining **2026-yil mart holatidagi Statistik byulleteni** ma'lumotlari tashkil etadi. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda dinamik qatorlar tahlili, tarkibiy (strukturaviy) tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlash usuli hamda grafik usulidan foydalanildi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-5841063>

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilayotgan kreditlar hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, mazkur yo'nalishdagi kreditlar hajmi **2020-yilda** 48,4 trln so'mdan **2025-yilda** 131,2 trln so'mga yetib, tahlil qilinayotgan davr mobaynida 2,7 barobarga oshgan. Ayniqsa, **2025-yilda** ajratilgan kreditlar hajmining **2024-yilga** nisbatan 42 foizga oshgani e'tiborga molikdir (1-rasm).




1-rasm. Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar dinamikasi²

Kreditlar sonining o'zgarishi yanada e'tiborlidir. **2020-yilda** 281,2 ming dona kredit ajratilgan bo'lsa, **2025-yilda** bu ko'rsatkich 909,2 ming donaga yetgan, ya'ni 3,2 barobarga oshgan. Kreditlar sonining kreditlar summasiga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi kreditlash jarayonining tobora kichik hajmdagi kreditlarga yo'naltirilayotganini, ayniqsa, kichik tadbirkorlik subyektlari va aholi qatlamini qamrab olish darajasi kengayib borayotganini ko'rsatadi. Bu esa mahalla darajasidagi tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'lami izchil kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Mahalla tadbirkorligining moliyaviy manbalarini tahlil qilishda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur kreditlar bevosita mahallada istiqomat qiluvchi fuqarolarning o'z tomorqasi, hunarmandchiligi yoki kichik biznesi orqali daromad topish faoliyatini moliyalashtirishga yo'naltirilgan (2-rasm).

2 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistik byulleteni (2026 yil mart) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm. Aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar dinamikasi³

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aholiga tadbirkorlik maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar hajmi **2020-yildagi** 3,6 trln so'mdan **2025-yilda** 21,8 trln so'mga yetib, olti barobardan ziyodga oshgan. Kredit oluvchilar soni esa 176,1 ming nafardan 755,3 ming nafarga ko'paygan. Boshqacha aytganda, **2025-yilda** 755 mingdan ortiq fuqaro bank krediti hisobiga o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki mavjud faoliyatini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lgan. Mazkur natija mahalla darajasida tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'lamining kengayib borayotganini ifodalaydi. Shuni ham ta'kidlash joizki, **2024-yilda** mazkur ko'rsatkichlarda nisbatan sekinlashuv kuzatilgan bo'lsa-da, **2025-yilda** imtiyozli kreditlash dasturlarining faollashuvi hisobiga yuqori o'sish sur'atlariga erishilgan. Shuningdek, **2026-yil yanvar oyidayoq** aholiga 29,8 ming dona kredit bo'yicha 1,4 trln so'm mablag' yo'naltirilgan.

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlarning asosiy yo'nalishlar bo'yicha tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Kichik va o'rta tadbirkorlik sub'yektlariga ajratilgan kreditlarning asosiy yo'nalishlar bo'yicha tarkibi, trln so'm⁴

Ko'rsatkichlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Jami ajratilgan kreditlar	59,6	69,8	73,0	92,4	131,2
Shu jumladan: mikrokreditlar	15,1	15,4	17,3	23,8	32,0
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari	8,6	9,9	9,9	6,8	4,4
Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga	18,2	11,5	10,1	33,6	49,0
Tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashga	7,8	9,4	13,3	16,9	18,7

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahalla tadbirkorligining moliyaviy ta'minotida mikrokreditlar alohida o'rin tutadi. Ularning hajmi **2021-yildagi** 15,1 trln so'mdan **2025-yilda** 32,0 trln so'mga yetib, ikki barobardan ziyodga oshgan. Tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan kreditlar hajmi ham barqaror o'sib, **2025-yilda** 18,7 trln so'mni tashkil etgan. Bu holat mahallalarda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish va ularning iqtisodiy faolligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning amaliy natijalarini aks ettiradi. Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan kreditlarning **2025-yilda** 49,0 trln so'mga yetishi esa mahallalarda sataroshxona, tikuvchilik, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat kabi aholiga yaqin xizmat turlarining izchil rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Mahalla tadbirkorligini kreditlashning yana bir muhim yo'nalishi oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlardir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi "Har bir oila-

³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistik byulleteni (2026 yil mart) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistik byulleteni (2026 yil mart) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

tadbirkor” dasturini amalga oshirish to’g’risida”gi PQ–3777-son⁵ qarorini amalga oshirish to’g’risidagi qarori bilan mazkur dastur joriy etilgan bo’lib, u ushbu yo’nalishdagi eng yirik dasturlardan biri hisoblanadi [9]. Mazkur dastur doirasida ajratilgan kreditlar to’g’risidagi ma’lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.


2-jadval

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari bo’yicha ajratilgan kreditlar⁶

Yillar	Jami kreditlar soni, dona	Jami summasi, mlrd so’m	“Har bir oila – tadbirkor” dasturi, mlrd so’m	Fermer, dehqon va tomorqa egalari, mlrd so’m	Hunarmandchilik, mlrd so’m	Mahalliy hokimliklar jamg’armalari, mlrd so’m
2021	352 469	8 566,3	8 196,3	189,0	134,3	46,8
2022	424 538	9 893,3	9 379,9	411,0	85,4	17,0
2023	472 021	9 864,3	9 259,8	579,5	8,8	16,2
2024	372 643	6 841,4	6 483,5	352,5	0,9	4,5
2025	260 405	4 402,5	4 352,5	49,0	0,0	0,0
2026 (I chorak)	74 401	1 252,7	1 230,3	0,2	0,0	22,2

2-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko’rsatadiki, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida **2021–2023-yillarda** har yili o’rtacha 9–10 trln so’m hajmida kreditlar ajratilib, 400 mingdan ortiq oila qamrab olingan. **2024–2025-yillarda** mazkur dasturlar doirasida ajratilgan kreditlar hajmida ma’lum o’zgarishlar kuzatilmoqda. Buni imtiyozli kreditlashdan bozor tamoyillariga asoslangan kreditlash mexanizmlariga bosqichma-bosqich o’tilayotgani, shuningdek, aholini kreditlashning umumiy tijorat mikrokreditlari hamda xizmat ko’rsatish sohasi kreditlari yo’nalishlari kengayib borayotgani bilan izohlash mumkin. Darhaqiqat, aynan shu davrda aholiga tadbirkorlik maqsadlari uchun ajratilgan jami kreditlar hajmi (2-rasm) sezilarli darajada oshgan. **2026-yilning I choragida** esa mahalliy hokimliklar huzuridagi jamg’armalar hisobidan 1 138 dona kredit bo’yicha 22,2 mlrd so’m mablag’ ajratilgani mahalla darajasidagi moliyalashtirish mexanizmlarining izchil rivojlanib borayotganini ko’rsatadi.

Mahalla tadbirkorligining tarmoq yo’nalishlarini aniqlash maqsadida kichik va o’rta tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlarning tarmoqlar bo’yicha tarkibi tahlil qilinadi (3-rasm).



3-rasm. 2025-yilda kichik va o’rta tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlarning tarmoqlar bo’yicha tarkibi,

5 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi “Har bir oila-tadbirkor” dasturini amalga oshirish to’g’risida”gi PQ–3777-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-3772869>

6 O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistik byulleteni (2026 yil mart), 5.3.14-jadval ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

foizda⁷

3-rasm ma'lumotlariga ko'ra, **2025-yilda** ajratilgan kreditlarning eng katta ulushi, ya'ni 32,8 foizi savdo va umumiy ovqatlanish sohasiga to'g'ri kelgan. Aholiga tadbirkorlik faoliyati uchun ajratilgan kreditlar ulushi 16,6 foizni, qishloq xo'jaligi 13,7 foizni, sanoat 13,5 foizni, qurilish esa 11,6 foizni tashkil etgan. Mazkur tarkib mahalla tadbirkorligining, asosan, savdo, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida rivojlanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sanoat yo'nalishidagi kreditlar ulushining nisbatan pastligi mahallalarda qo'shilgan qiymat yaratuvchi ishlab chiqarish faoliyatini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini anglatadi.

Tijorat banklari kredit portfelining tarkibiy tahlili ham mahalla tadbirkorligi segmentining izchil rivojlanayotganini tasdiqlaydi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, yakka tartibdagi tadbirkorlarga milliy valyutada ajratilgan kreditlar qoldig'i **2025-yil 1-yanvardagi** 9,8 trln so'mdan **2026-yil 1-aprelga** kelib 17,0 trln so'mga yetgan, ya'ni besh chorak mobaynida 74 foizga oshgan. Bu bank tizimi kredit portfelining umumiy o'sish sur'atiga nisbatan (**shu davrda 533,1 trln so'mdan 623,3 trln so'mga, ya'ni 17 foizga**) sezilarli darajada yuqoridir. Demak, tijorat banklari kredit siyosatida kichik tadbirkorlik segmentining ahamiyati izchil ortib bormoqda.

Shu bilan birga, mahalla tadbirkorligini kreditlash tizimini yanada takomillashtirishni talab etuvchi ayrim masalalar mavjud. Birinchidan, kredit resurslari qiymati muhim omillardan biri hisoblanadi. Markaziy bankning asosiy stavkasi **2025-yil 24-martdan** buyon 14 foiz darajasida saqlanib kelmoqda, milliy valyutadagi bank kreditlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi esa **2026-yil mart oyida** 22,3 foizni, jismoniy shaxslarga bir yilgacha muddatga ajratilgan kreditlar bo'yicha esa 27,8 foizni tashkil etgan. Mazkur foiz stavkalari yangi faoliyat boshlayotgan hamda daromadlilik darajasi nisbatan past bo'lgan mahalla tadbirkorlari uchun moliyaviy yukni oshirishi mumkin. Ikkinchidan, mahalla darajasidagi tadbirkorlarning ayrimlarida bank talablariga javob beradigan mulkiy ta'minot va rasmiy kredit tarixining yetarli darajada shakllanmaganligi kreditlash imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Uchinchidan, ayrim hududlarda bank infratuzilmasini yanada rivojlantirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish kredit resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, tijorat banklari kreditlari mahalla tadbirkorligini rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirishning muhim moliyaviy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. O'tkazilgan tahlillar **2020–2025-yillarda** kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar hajmi 2,7 barobarga, aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ajratilgan kreditlar esa olti barobardan ziyodga oshganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, kredit resurslari qiymati, kredit ta'minoti bilan bog'liq masalalar hamda aholining moliyaviy savodxonligini yanada oshirish zarurati mazkur yo'nalishni izchil takomillashtirishni taqozo etadi. Mazkur yo'nalishlarni yanada rivojlantirish hamda tijorat banklari kreditlarining mahalla tadbirkorligini rivojlantirishdagi samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, hokim yordamchilari instituti bilan tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlikni institutsional jihatdan yanada mustahkamlash, har bir mahallaga banklarning mas'ul kredit mutaxassislarini birlashtirish hamda mahallaning iqtisodiy pasporti ma'lumotlarini kredit skoring tizimlariga integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Bu kredit riskini baholash sifatini oshirib, banklarga qarz oluvchilar to'g'risida yanada ishonchli axborot olish imkonini beradi.

Ikkinchidan, mulkiy ta'minoti yetarli bo'lmagan mahalla tadbirkorlari uchun davlat kafolat jamg'armalari faoliyatini kengaytirish, shuningdek, guruhli kafolatga asoslangan mikrokreditlash mexanizmlarini joriy etish lozim. Bunda mahalla fuqarolar yig'inining tavsiyasi va ijtimoiy nazorati qo'shimcha ishonch omili sifatida xizmat qilishi mumkin.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar asosida masofaviy mikrokreditlash tizimlarini rivojlantirish, kredit ajratish jarayonlarini to'liq onlayn shaklga o'tkazish hamda ma'muriy xarajatlarni qisqartirish hisobiga kichik summadagi kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini optimallashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu, ayniqsa, bank infratuzilmasi nisbatan kam rivojlangan uzoq hududlardagi mahallalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, mahallalarda ishlab chiqarish va hunarmandchilik yo'nalishidagi tadbirkorlikni yanada rag'batlantirish maqsadida mazkur yo'nalishlar bo'yicha maqsadli imtiyozli kredit liniyalarini kengaytirish hamda kredit mablag'larining maqsadli ishlatilishi ustidan monitoring tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq.



Beshinchidan, mahalla darajasida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha tizimli o'quv dasturlarini tashkil etish, tadbirkorlarga biznes-reja tuzish hamda moliyaviy hisobotlarni yuritish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish lozim.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi tijorat banklari kreditlarining mahalla tadbirkorligini rivojlantirishdagi samaradorligini yanada oshirishga hamda pirovardida aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. : <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Stiglitz, J. E., Weiss, A. Credit Rationing in Markets with Imperfect Information // *The American Economic Review*. – 1981. – Vol. 71, No. 3. – P. 393–410.
3. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A. Small and Medium-Size Enterprises: Access to Finance as a Growth Constraint // *Journal of Banking & Finance*. – 2006. – Vol. 30, No. 11. – P. 2931–2943.
4. Banerjee, A., Duflo, E., Glennerster, R., Kinnan, C. The Miracle of Microfinance? Evidence from a Randomized Evaluation // *American Economic Journal: Applied Economics*. – 2015. – Vol. 7, No. 1. – P. 22–53.
5. Yunus, M. *Banker to the Poor: Micro-Lending and the Battle Against World Poverty*. – New York : PublicAffairs, 2003. – 273 p.
6. Банковское дело : учебник / под ред. О. И. Лаврушина. – Москва : КНОРУС, 2016. – 800 с.
7. Abdullayeva, Sh. Z. *Bank ishi* : darslik. – Toshkent : «Iqtisod-Moliya», 2017. – 732 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi PQ-3777-son "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risidagi Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Statistik byulleteni*. – 2026-yil mart. – URL: <https://cbu.uz>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100